**XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI**

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2021 - yil 31 - dekabr VI-41-68-8-120-K/21 Sho‘rchi tuman hokimligi

## Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabridagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabridagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuniga ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Sho‘rchi tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 100660583,0 ming so‘m, xarajatlari 225292490,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 124631907,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Sho‘rchi tumanining 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tumanning ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Sho‘rchi tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2124399,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 790460,0 ming so‘mni hamda tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq

deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan qat’iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘i (O‘zbekitson Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari).

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar

v) viloyat budjeti hamda tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

(xar bir soliq turi bo‘yicha ajratmalar normativi ko‘rsatiladi)

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulov, Moliya bo‘limi

S.Tangirov, Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov) tumandagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga

alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov), tuman yer resurslari va davlat kadastri (X.Mamaraimov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Sho‘rchi tuman bo‘limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha

kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (G.Shermatova), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman davlat soliq nspeksiyasi (Sh.Zokirov), tuman moliya bo‘limi (S.Tangirov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Tuman iqtisodiy tarraqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (T.Qulto‘raev) tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha tuman hokimligi bilan shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Tuman irrigatsiya bo‘limi (O.Ismoilov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Zokirov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (O.Bozorov) bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman ichki ishlar bo‘limi (D.Kenjaev), Davlat xizmatlari markazi bilan birgalikda hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Tuman moliya bo‘limi, xalq ta’limi bo‘limi, maktabgacha ta’lim

bo‘limi va tuman tibbiyot birlashmasi bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan monitoringlar yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

22. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

23. Tuman hokimligi:

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini

ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

24. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligining tegishli bo‘limlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Mazkur qaror “Jarayon” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Sho`rchi tumani Kengashi raisi**



**Xudoyberganov B. X.**

Халқ депутатлари Шўрчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
1-илова

## 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **100 660 583,0** |
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | |
| 2 | Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar | 10 037 000,0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 19 175 850,0 |
| 4 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 1 561 000,0 |
| 5 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | |
| 6 | Aksiz solig‘i, jami | 41 756 733,0 |
| | *shu jumladan:* | |
| | ***- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq*** | *7 109 500,0* |
| | ***Formulaga asosan taqsimlanadigan daromadlar*** | *34 647 233,0* |
| | *Aholi soni (ming kishi)* | *214 912,0* |
| | *Alkogol ichimlikka aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)* | *13 113 562,0* |
| | *Uyali aloqa uchun aksiz solig‘i* | *7 470 783,0* |
| | *Tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘i* | *14 062 888,0* |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3 736 000,0 |
| 8 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 4 435 000,0 |
| 9 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 1 289 000,0 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 12 061 000,0 |
| 11 | Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari) | 458 000,0 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 756 000,0 |
| 13 | Ijara to‘lovi | 206 000,0 |
| 14 | Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar | 21 000,0 |
| 15 | Yig‘imlar | 5 168 000,0 |

Халқ депутатлари Шўрчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
2-илова

**2022 yil uchun Sho‘rchi tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari**

ming so‘mda

| № | Ko‘rsatkichlar | miqdori |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, Jami** | | **225 292 490,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | **225 292 490,0** |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| | Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar | |
| **1.** | **Xalq ta’limi bo‘limi** | **11 696 022,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 11 696 022,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **2.** | **Maktabgacha ta’lim bo‘limi** | **8 981 133,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 981 133,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **3.** | **Sog‘liqni saqlash** | **61 443 712,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 61 443 712,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **4.** | **Madaniyat bo‘limi** | **1 940 913,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 940 913,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **5.** | **Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi** | **2 454 613,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 454 613,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **7.** | **Qishloq xo‘jaligi bo‘limi** | **670 149,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 670 149,0 |

| | | |
|---|---|---|
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **8.** | **Irrigatsiya tizimlari havza bo‘limi** | **1 036 255,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 036 255,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **9.** | **Veterinariya sohasi** | **1 385 029,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 385 029,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **10.** | **Bandlikka ko‘maklashish markazi** | **729 243,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 729 243,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **11.** | **Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari** | **407 666,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 407 666,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **12.** | **Moliya bo‘limi** | **819 801,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 819 801,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **12.** | **Madaniyat bo‘limi (apparat)** | **150 370,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 150 370,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **13.** | **Obodonlashtirish boshqarmasi** | **8 749 193,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 749 193,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **14.** | **Davlat hokimiyat organlari** | **2 223 259,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 223 259,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **15.** | **Maxallabay ishlash markazlari** | **4 579 489,0** |
| | *shu jumladan:* | |

| | | |
|---|---|---|
| | joriy xarajatlar | 4 579 489,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **16.** | **O‘zini o‘zi boshqarish organlari** | **5 155 463,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 5 155 463,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **17.** | **Ijtimoiy moslashuv markazlari** | **53 351,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 53 351,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **18.** | **Zaxira jamg‘armasi** | **2 124 399,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 124 399,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **19.** | **Ijtimoiy nafaqalar** | **97 596 516,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 97 596 516,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **20.** | **Xalq qabulxonasi** | **123 130,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 123 130,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **21.** | **Axbrot kutubxona markazi** | **0,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **22.** | **Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati** | **194 925,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 194 925,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **23.** | **Maxalla va oilani kullab-kuvvatlash bo‘limi** | **508 418,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 508 418,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **24.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **10 728 214,0** |

| | | |
|---|---|---|
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 10 728 214,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **25.** | **Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun** | **1 541 227,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 541 227,0 |
| | ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

Халқ депутатлари Шўрчи туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
3-илова

**Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori 2022 yil**

***Foiz hisobida***

| T/R | Shaxar va tumanlar nomi | Aylanmadan soliq | Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401) | Jismoniy shaxslarning yer solig‘i | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari) | Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq * | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq ** | Yuridik shaxslar yer solig‘i *** | Yig‘imlar | Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar | Ijara to‘lovlari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2022 yil | 100 | 100 | 100 | 100 | 45 | 50 | 50 | 100 | 100 | 50 | 100 | 20 | 100 |

Халқ депутатлари Шўрчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
4-илова

## Sho‘rchi tuman mahalliy byudjetlarining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

**ming so‘mda**

| **Hudud nomi** | **Daromad** | **Xarajat** |
|---|---|---|
| **JAMI** | **100 660 583,0** | **225 292 490,0** |
| Sho‘rchi tuman | 100 660 583 | 225 292 490 |

Халқ депутатлари Шўрчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
5-илова

## Sho‘rchi tuman mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

**ming so‘mda**

| **Shahar va tumanlar** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** |
|---|---|
| **JAMI** | **124 631 907,0** |
| *shundan* | |
| Sho‘rchi tuman | 124 631 907,0 |

Халқ депутатлари Шўрчи туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-41-68-8-120-K/21-сон қарорига
6-илова

## Sho‘rchi tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

**ming so‘mda**

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **790 460,0** |
| | *shundan* | |
| 1 | Sho‘rchi tuman | **790 460,0** |